


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIJ TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**13.00.05 -"KASB-HUNAR TA'LIM NAZARIYASI VA METODIKASI"**  
**IXTISOSLIGI BO'YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA (PhD)**  
**TALABGORLAR UCHUN MUTAXASSISLIK FANIDAN KIRISH**  
**IMTIXONINI TOPSHIRISH**  
**DASTURI**

**Tuzuvchi:**   
M. Yusupov - Texnologik ta'lim va tasviriy  
san'at fanlari kafedrası mudiri.

**Taqrizchilar:**   
T. J. Ismoilov - p. f. n. Texnologik ta'lim  
kafedrası dotsenti.

Mirzo Ulug'bek Nomidagi O'zbekiston  
Milliy Universitetining Jizzax Filiali Oila  
psixologiyasi kafedrası mudiri dotsent.  
S. Aliqulov

## Kirish

Ushbu 13.00.05 - "Kasb-hunar ta'lim nazariyasi va metodikasi" (pedagogika fanlari) ixtisosligi bo'yicha tayanch doktaranturaga talabgorlar uchun kirish imtixonini topshirish dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni va 2017 yil 30-iyundagi PQ-5099-sonli "Respublikada axborot texnologiyalari soxasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 27-iyuldagi PQ-3151-sonli "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2018 yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda muayyan darajada xizmat qiladi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar olib borilishi natijasida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashni innovatsion yondashuvlar asosida yanada jadallashtirish dolzarbligicha qolmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "ta'lim va uqitish sifatini baxolashning xalkaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish"<sup>1</sup> vazifasi belgilangan. Bu borada kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning ijtimoiy buyurtmachilar ehtiyojlarini hisobga olgan holda, takomillashtirish hamda o'quv jarayoniga pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirish muhim hisoblanadi. Buning uchun, tadqiqotchi-izlanuvchi pedagoglarning tadqiqotchilikka tayyorgarlik darajasini kompetentli yondashuv asosida shakllantirish metodikasi

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi Conun hujjatlari to'plami. — T., 2017. -B.39.

va ob'ektiv baholash metodikasini ishlab chikish bo'ljak kasb ta'limi o'qituvchilarini umumkasbiy va mutaxassislik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

### 13.00.05 - "Kasb-hunar ta'lim nazariyasi va metodikasi" (pedagogika fanlari) ixtisosligi bo'yicha mavzular

#### O'zbekiston Respublikasida ta'lim va uni rivojlantirishga oid qonun xujjatlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmon mazmuni va mohiyati; O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" 2020 yil 23 sentabrdagi O'RBQ-637-sonli Qonun mazmuni va mohiyati; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5812 sonli Qaror mazmuni; O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" 2020 yil 29 oktyabrdagi O'RBQ-576 -sonli Qonuni mazmuni va mohiyati; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrdagi "Ilm fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli farmoni mazmuni va mohiyati va boshqalar.

#### Kasbiy ta'limning rivojlanish tarixi

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyot davrida kasbiy ta'limning rivojlanishi, tashkiliy shakllari. Markaziy Osiyo mamlakatlarida yashab ijod etgan mutafakkir va ma'rifatparvar olimlarning kasbiy ta'lim haqidagi g'oyalari. Kasbiy ta'limni rivojlantirish sohasida respublika va xorijiy davlatlarda faoliyat yuritayotgan yetakchi olimlar, pedagoglar.

#### Kasbga yo'naltirishning metodologik asoslari

Shaxsning kasbiy shakllanish jarayoni. Kasbiy maslahat, kasbiy ma'lumot. Kasbiy faoliyatning tahlili, kasbiy maqsadlar, vaziyatlar, qiyinchiliklarni o'rganish. Shaxsning kasb tanlashdagi individual xususiyatlari. Kasbga yo'naltirish metodlari. Metodologik tamoyillar.

#### Kasb ta'limi metodikasida ilmiy-tadqiqot metodlari

Kuzatish usuli. Suhbat usuli. Pedagogik so'rash usuli. Test, so'rovnomal o'tkazish usuli. Test sinovlari usuli. Eksperiment-tajriba-sinov usuli. Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish usuli. Matematika va kibernetika usullari. Ijtimoiy tadqiqot usuli.

#### Kasb-hunar ta'limi mazmuni

O'rta maxsus, kasb-ta'limi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat "Tasniflagichi". Kasb-hunar ta'limi mazmuni. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi asosiy o'quv-me'yoriy hujjatlar

#### Kasb-hunar ta'limi tizimi va jarayoni

Ta'limning didaktik tizimi haqida umumiy tushuncha. Predmet tizimi, operatsiya tizimi, operatsiya-predmet tizimi, motorlimashq tizimi, operatsion-kompleks va boshqa tizimlar. Kasb-hunar ta'limi didaktik tizimlarini takomillashtirish.

#### Maxsus fan va ishlab chiqarish ta'limi o'qituvchisining faoliyat sohalari va unga qo'yiladigan talablar.

Kasb ta'limi o'qituvchisi va o'quv ustasining malaka tavsifnomasi. Kasb-hunar ta'limi o'qituvchisining funksional vazifalari. Kasb ta'limi o'qituvchisi va o'quv ustasining huquq va burchlari. Kasb ta'limi o'qituvchisi va o'quv ustasini tayyorlash va unga qo'yiladigan talablar

#### Kasbiy ta'lim metodlari

Metod, ta'lim metodi tushunchalari. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi metodlari klassifikatsiyasi: Kasb ta'limi metodlari mazmuni, amalga oshirish texnologiyasi. Ta'lim metodlarini tanlash mezonlari

#### O'quv-didaktik material hamda vositalarni tayyorlash va ulardan foydalanish

Ta'lim vositasi tushunchasi va uning mohiyati . Ta'lim vosita turlari va ulardan foydalanish . O'quv- didaktik materiallarni ishlab chiqish . Taqdimotni tashkil etish va o'tkazish qoidalar

#### **Kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni**

##### **nazorat qilish va baholash**

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash tushunchasi . O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash shakllari va turlari . O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash tamoyillari va baholashda uchraydigan kamchiliklar . O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash metodlari . O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashni loyihalashtirish

##### **Kasb ta'limini rejalashtirish**

Kasb ta'limini rejalashtirish maqsadi. Ishlab chiqarish ta'limni rejalashtirishda didaktik hatti-harakatlar. Maxsus fan o'qituvchilari va muhandis-pedagogning asosiy o'quv rejalashtirish hujjatlari

#### **Kasb-hunar kollejlarda o'quv, ishlab chiqarish amaliyotlarni tashkil etish va o'tkazish**

O'quv, ishlab chiqarish amaliyotning maqsadi va uning mohiyati. O'quv amaliyotini rejalashtirish va uni tashkil etish. Ishlab chiqarish amaliyoti va diplom oldi amaliyotini rejalashtirish va tashkil etish metodikasi.

##### **Professional ta'lim tizimi**

Professional ta'lim tizimi, uning o'ziga xos xususiyatlari, amalga oshirish shart-sharoitlari. Professional ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklari va kasblari klassifikatorining tarkibiy tuzilishi, maqsadi va qo'llanishi, klassifikatorida keltirilgan asosiy tushunchalar mazmuni. Professional ta'limda ta'lim olish shakllari, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim darajalarida ta'lim jarayonini tashkil etish.

#### **Professional ta'limning maqsadi va mazmuni**

Professional ta'limning maqsadi, mazmuni, vazifalari, tarkibiy qimlari va ularning o'zaro aloqadorligi. Professional ta'limda maxsus o'quv predmetlari va ishlab chiqarish ta'limining o'zaro aloqadorligini ta'minlash haqida. Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish. Dual ta'lim asosida o'quv jarayoni va ishlab chiqarish amaliyotlarini olib borish .

#### **Kasbiy ta'lim pedagogikasi va metodikasi fanining predmeti**

Kasbiy ta'lim pedagogikasi va metodikasi fanining predmeti, mazmuni va vazifalari. Muammoli ta'lim texnologiyalari, nazariy asoslari, maqsad va vazifalari, vositalari. "Ko'nikma", "Kvalifikatsiya", "Kompetensiya", "Kasbiy kompetensiya" tushunchalariga ta'rif.

#### **Kasbiy ta'lim pedagogikasida ta'lim metodlari**

O'qitishda ko'rgazmalilik. Ko'rsatish va tushuntirishning uzviyligi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, baholash usullari, vositalari hamda mezonlari. Og'zaki, yozma, test tizimidan foydalanishning afzallik va kamchiliklari. Ma'ruza, seminar, muammoli, modulli, didaktik-o'yinli, laboratoriya darslari va amaliy mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari. Mantiqiy metodlar: taqqoslash va analogiya, umumlashtirish, abstraksiyalash, konkretlashtirish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez.

#### **Darsning turlari**

Darsning turlari, ko'rinishlari va tuzilishi. Zamonaviy va an'anaviy darslarning o'ziga xos xususiyatlari. Bir soatli nazariy va amaliy dars rejasini tuzish, uni tahlil qilish. Ikki akademik soatli nazariy va va to'rt akademik soatli amaliy dars rejasini tuzish, uni tahlil qilish. Dasturiy o'quv materialni o'quvchilar o'zlashtirmasliklarining sabablari, ularni aniqlash va bartaraf etish yo'llari.

#### **Kasbiy pedagogikada tadqiqot usullari**

Kasbiy pedagogikada tadqiqot usullari va ularni qo'llash tajribalari. O'qitishda texnik vositalardan foydalanish. Texnik vositalarning turlari, tavsifi. Kompyuter va matematik modellashtirish asllari va uning o'ziga xosligi. Matematik modellashtirishning asosiy prinsiplari va hisoblashda loyihalash usullari.

### **Pedagog o'qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash**

Pedagog kadrlarni malaka oshirish kurslarida maqsadli tayyorlash, ta'lim tizimini malakali kadrlar bilan ta'minlash omillari, elektron portfolio tizimi. Malaka oshirishning to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita shakllari, malaka oshirish jarayonlarini tashkil etishda Internet tarmog'i, multimedia tizimlari, masofadan o'qitish usullaridan, vebinar texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish. Pedagog o'qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonini tubdan yangilash: xolat, tavsiyalar, tanqidiy baholash.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoyev SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekistan davlatini birgarlikda barpo etamiz". T.: "O'zbekistan", 2016 yil.
2. Mirziyoyev SH.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". T.: "O'zbekistan", 2017 yil.
3. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya, 2013.
4. Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent, 2015.
5. To'raqulov O.X., Turmatov J.R. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi //O'ZMU xabarlari. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitet ilmiy jurnali. -Toshkent, 2018 yil. №3. - 14-186.
6. Turmatov J.R. Talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlari// Kasb-hunar ta'limi. -Toshkent, 2012, № 1.-B. 29-31.
7. Xodjabaev A.R., Xusanov I.A. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. - T.: Fan va texnologiya, 2007.
8. SHaripov SH.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dok. dis. avtoref. T. 2012.

9. SHaripov SH. S. Kasb-hunar ta'limida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish. Monografiya. - Toshkent, Fan, 2005.
10. SHaripov Sh.S., Abduraimov Sh.S., Zaripov L.R., Qodirov B.E. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. Darslik. -T., "Lesson Press" nashriyoti, 2022.
11. Jumayev M. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. -T., "Innovatsiya-ziyo" nashriyoti, 2021.
12. Qo'ysinov O.A. Bulajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini kompetentli yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari. Monografiya. Toshkent. 2018.
13. Hamidov J.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish texnologiyasi. Monografiya. - T.: "Sano-standart". 2017.